

## О‘ЗBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIY SUDLARNING VAZIFALARI

*Ismoiljonova Mubinaxon Umidjon qizi*

*Andijon Davlat Universiteti*

*Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi*

### Annotatsiya

Yangilanayotgan O‘zbekistonda kundan kunga ko‘plab sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sud tizimi ham bundan mustasno emas. Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik subyektlari soni ortib borishini hisobga olgan holda tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi. Quyidagi maqolada iqtisodiy sud nima ekanligi, uning vazifalari va yo‘nalishlari nimalardan iborat ekanligi to‘g‘risida so‘z boradi.

### Abstract

In modernizing Uzbekistan, it is being implemented in many areas every day. the judicial system is no better. To increase the number of economic and business entities of the country, economic entities, district economic courts were established. In the economic section, it is discussed what the economic court is, what its activities and directions are.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy sud, “Iqtisodiy protsessual kodeks”, iqtisodiy ish, bankrot, tadbirkor, sudya, texnologiya.

**Key words:** economic court, "Economic Procedural Code", economic work, bankruptcy, entrepreneur, judge, technology.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik subyektlari soni ortib borishini hisobga olgan holda tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi. Bu o‘zgarishlar Iqtisodiy protsessual kodeksni qabul qilishni zaruriyatga aylantirdi. 2018-yil 25-yanvar kuni matbuotda e‘lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksini tasdiqlash haqida”gi qonun bilan yangi kodeks tasdiqlandi. Kodeks 2018-yil 1-apreldan kuchga kiradi. U 5 bo‘lim, 37 bob va 347 moddadan iborat.

Kodeks bilan iqtisodiy sudlarda ishlarni yuritish tartibi takomillashtirildi. Eng e‘tiborlisi, sohaga oid qonunchilik va amaliyotdagi ayrim kamchiliklar bartaraf etildi.

Kodeksda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yanada kengroq foydalanishga oid norma belgilandi. Endilikda sud majlislarini audio va videoda qayd etish yanada kengaytiriladi. Bunday zamonaviy uslubning keng joriy etilishi sud majlislari to‘liq qonun talablari asosida o‘tishini ta‘minlaydi.

Sud majlisi yozilgan audio yoki videoyozuv bilan unda qatnashgan shaxslarni tanishtirish imkoniyati berilmoqda. Iqtisodiy sud qanday maqsadda tashkil etilganligini bilib oldik, endi esa avvalo, iqtisodiy sud nima ekanligi to'g'risida so'z yuritsak.

Iqtisodiy sud - sud hokimiyatining bir tarmog'i sifatida qonun bilan faqat o'ziga yuklatilgan nizolarga doir ishlarni ko'rib hal qiladi.<sup>1</sup> Bu yerda qonun deganda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 1-aprelda qabul qilingan "Iqtisodiy prosessual kodeksi" va boshqa qonunlar tushunilishi lozim. IPKning 25-moddasida iqtisodiy sudlarning sudloviga taalluqli bo'lgan ishlarning ro'yxati berilgan. Umumiy qoidaga ko'ra bu ro'yxat tugal hisoblanmaydi va boshqa qonun hujjatlarida iqtisodiy sudlarda ko'riladigan nizolar ham belgilanishi mumkin. IPKda iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar asosan oltita guruhga ajratilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, sud amaliyotini birxillashtirish, sud statistikasini yuritishni ta'minlash va sud faoliyatini umumlashtirishda yengilliklar yaratishdir.

Iqtisodiy sudga:

1) iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar, shuningdek korporativ nizolar bo'yicha ishlar ko'rilayotganda taraflar bo'lgan fuqarolar (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) o'rtasidagi fuqaroviy, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar;

2) iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash (bundan buyon matnda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash deb yuritiladi) to'g'risidagi ishlar;

3) bankrotlik to'g'risidagi ishlar;

4) hakamlik muhokamasi bilan bog'liq ishlar;

5) IPKning 30-moddasida ko'rsatilgan korporativ nizolar bo'yicha ishlar, bundan mehnatga oid nizolar mustasno.<sup>2</sup>

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (bundan buyon matnda yuridik shaxs deb yuritiladi) va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

- iqtisodiyot sohasida qonuniylikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish;

<sup>1</sup> fargona@adliya.uz

<sup>2</sup> fargona@adliya.uz

- qonunga va sudga nisbatan hurmatda bo'lish munosabatini shakllantirish.<sup>3</sup>

Iqtisodiy ish – iqtisodiy ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan hujjatlar, ishni ko'rish jarayonida sud tomonidan talab qilib olingan hujjatlar, shuningdek qog'ozda rasmiylashtirilgan sud hujjatlari va boshqa hujjatlar asosida shakllantiriladi. Iqtisodiy ish elektron shaklda shakllantirilishi mumkin.<sup>4</sup>

Iqtisodiy ish elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari o'z elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan hujjatlarni elektron shaklda sudga taqdim etishga haqli. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan yozma hujjatlar ishga elektron shaklda qo'shib qo'yiladi, shundan so'ng yozma hujjatlar ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

Iqtisodiy ish elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda, sud hujjatlari sudyaning (sudyalarining) elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, sud majlislarining hamda alohida protsessual harakatlarning bayonnomalari esa raislik qiluvchining va sud majlisi kotibining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Elektron shakldagi iqtisodiy ishni boshqa sudga yoki boshqa organga o'tkazish telekommunikatsiya kanallari orqali amalga oshiriladi.

Elektron shaklda shakllantirilgan iqtisodiy ishning qog'ozdagi ko'chirma nusxasi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy protsessual kodeksi"ning 7-moddasida shunday deyilgan, "Sudda nizolarni hal qilish yuridik shaxslarning mulkchilik shaklidan, qayerda joylashganligidan, kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, fuqarolarning esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan, shuningdek boshqa holatlardan qat'i nazar qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi."<sup>5</sup>

Odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sudyalarining odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga bironbir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalar mustaqilligining kafolatlari qonun bilan belgilanadi.

Shu o'rinda nemis yozuvchisi I.Gyote ning quyidagi so'zlarini aytib o'tish o'rindir. Ya'ni "Jazolashga layoqati bo'lmagan sudya alaloqibat jinoyatchining

<sup>3</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>

hamtovog‘iga aylanadi”.<sup>6</sup> Mashhur nemis yozuvchisining bu fikrlari albatda o‘rinlidir.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy sudlarni tashkil etilishi, tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar o‘rtasidagi nizolar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishda qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi va etilishida yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ozod Tillaboyevich Husanov “Konstitutsiyaviy huquq atamalarining izohli lug‘ati”. Toshkent – 2015.
2. В.А.Костецкий, Э.С.Асадова, М.А.Тошпу‘латова “Конституциявий хукук асослари”. Тошкент – 2001.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Iqtisodiy protsessual kodeksi”.

---

<sup>6</sup> В.А.Костецкий, Э.С.Асадова, М.А.Тошпу‘латова “Конституциявий хукук асослари”. Тошкент – 2001.